vazir lavozimida faoliyat yuritgan. U juda yaxshi sifatlarga ega vazir bo'lgan. Uning shaxsiyatiga davlat arbobi va allomalar g'oyat yuksak baho berganlar. Jumladan, Amir Temur "Temur tuzuklari"ning bir necha o'rinlarida Nizomulmulkni hurmat-ehtirom bilan eslab, jumladan, shunday deydi: "Malikshoh Saljuqi o'z vaziri Nizomulmulkni martabasidan tushirdi. Vazir boshdan-oyoq yaxshi sifatlarga o'ralgan edi. Uning o'rniga zoti past, yomon bir kishini vazir qilib tayinladi. Bu shumqadam vazirning qabih ishlari, zulm-sitami va nafi buzuvchiligi kasofatidan saltanat binosi buzila boshladi" [12, 107-108-b.]. "Siyosatnoma" asarida shariat qoidalari bilan bir qatorda dunyoviy davlatga xos xususiyatlardan kelib chiqib, davlat amaldorlari uchun boshqaruv qoidalari tavsiya etilgan. Mazkur boshqaruv qoidalarini hatto "boshqaruv san'atlari" sifatida ham e'tirof etish mumkin. Xususan, Nizomulmulk davlat xizmatini kadrlar bilan ta'minlash haqida so'zlar ekan: "Amaldorlarni to'g'ri tanlab, ularga qo'llaridan keladigan ishlar va vazifalarni topshirish, bir kishiga bir amal berib, undan itoat va ijro fazilatini kutish davlat boshqaruvining asosiy talablari dandir" [11, 11-b.], – deb qayd etadi.

Buyuk davlat arbobi Amir Temurning davlat xizmati to'g'risidagi qarashlari "Temur tuzuklari"da bayon etilgan bo'lib, unda ta'kidlangan davlat xizmatchilari fazilatlarining ayrimlari bugungi kunda ham dolzarbdir. Jumladan, Amir Temur farosatlilik, xalqparvarlik, xushmuomalalik va mehnatsevarlik ko'nikmalariga ega shaxslar rahbarlik lavozimlarini egallashi lozim deb hisoblagan: "Vazirlar ushbu to'rt sifatga ega kishilardan bo'lishlari lozim: birinchisi – asillik va toza nasllik, ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik, to'rtinchisi – sabrchidamlilik va tinchliksevarlik" [12, 106-107-b.]. Temurshunos olim, akademik B. Ahmedov Amir Temur ixcham boshqaruv tizimi tuzganiga urg'u qaratadi: "Markaziy davlat tizimiga kelsak, uni bor yo'g'i yetti vazir:

1) mamlakat va raiyat vaziri, 2) sipoh vaziri, 3) moliya ishlari vaziri, 4) saltanat ishlarini yurituvchi vazir; beshinchi, oltinchi, yettinchi vazirlar – sarhad vazirlari boshqarardi" [13, 12-b.].

Ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiy ham shoir va yozuvchi, ham davlat arbobi sifatida samarali hayot kechirgan bo'lib, uning qarashlarida komil inson, xususan, yetuk davlat xizmatchisi, xalqparvar amaldor masalalari o'rin olgan. Uning bu boradagi mulohazalari "Saddi Iskandariy" va "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") asarlarida o'z ifodasini topgan [14].

Huquqshunos F.A. Muhitdinova Sharq mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta'limotlarini tadqiq etar ekan, ulardagi kadrlar siyosatiga oid g'oyalar davlat hokimiyati va boshqaruvi xodimlari, shu jumladan, rahbar kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi [15, 10-b.]. Ushbu fikrlarga qo'shimcha qilib, yuqoridagi mutafakkirlarning g'oyalari kadrlar siyosatiga oid qonunchilikni takomillashtirishda metodologik manba bo'lishi mumkinligini aytish joiz.

XVI-XIX asrlarda Buxoro xonligi (amirligi), Xiva va Qo'qon xonliklari davrida davlat xizmatini kadrlar bilan ta'minlashda yuqorida keltirilgan qarashlar, shajara va nasl-nasab xususiyatlari, shuningdek, islom dini qoidalariga asoslandi. Xonliklardagi davlat xizmati lavozimlari bir-biridan keskin farq qilmagan. Ulardagi eng o'xshash xususiyat – yuqori lavozimlarga, asosan, hukmron sulola mansub bo'lgan urug' vakillari tayinlangan. Bu borada professor H. Boboyevning qayd etishicha: "Buxoro amirligida yetakchi o'zbek urug'lari, xususan, mang'it urug'i zodagonlari hukmron tabaqaning asosiy tayanchi bo'lib xizmat qilgan. Davlatdagi eng oliy harbiy-ma'muriy amaldorlar, mahalliy boshqaruvdagi asosiy mansabdorlar mang'it urug'idan bo'lgan kishilardan tayinlangan" [16, 218-b.].

Xonliklar Chor Rossiyasi boshqaruviga o'tgach, kadrlar tizimida ham katta

o'zgarishlar yuz berdi. Siyosatshunos Q. Qurbanboyevning ta'kidlashicha, XIX asr ikkinchi yarmidan 1917-yilgacha bo'lgan Chor Rossiyasi davrida davlat xizmatining muhim lavozimlariga kadrlarni tanlab olishda hukmron Romanovlar sulolasiga yaqin zodagonlarning fikri muhim rol o'ynagan [17, 68-b.]. Shu tariqa hukmron sulolaga sodiq shaxslar yuqori lavozimlarni egallagan.

G'arbda davlat xizmati alohida fan va tizim sifatida rivojlanayotgan bir paytda, Sobiq ittifoq davrida (1917–1991-yillar) davlat xizmati masalasiga deyarli e'tibor qaratilmadi. Davlat xizmatchilarini tanlashda ularning mutaxassisligi va kompetensiyasiga tayanishga anchagina sust qaraldi. Davlat organlari boshqaruv lavozimlariga muayyan bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lmada, asosiysi kommunistik partiya tarafdori bo'lgan, yuqoridagi rahbarga so'zsiz bo'ysunuvchi shaxslar tayinlandi. Xususan, boshqaruv ko'nikmasi va ma'lum mutaxassislikka ega bo'lmagan dehqon, kolxozchi, ishchi kabilar yuqori lavozimlarni egalladi. Bu o'sha davrda mashhur bo'lgan "Proletariat diktaturasi"ning amaliy ifodasi edi. Hattoki, XX asrning 80-yillariga kelib, milliy kadrlarni tazyiqqa olish, "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" kabi bo'htonlar bilan ularni qatag'on qilish avj oldi. Professor A. Azizxo'jayev qatag'on oqibatida ayniqsa qishloq xo'jaligi boshqaruvining kadrlar korpusi jiddiy zararlanganini alohida qayd etadi [18, 259-b.]. Sobiq Ittifoq davrida davlat xizmatiga oid ilm-fan ham juda sust rivojlandi. Bu davrda A. Beylin, I. Pronin, Y. Razumov, V. Yaskov [19] kabi olimlar tomonidan davlat kadrlar siyosatiga oid tadqiqotlar amalga oshirilib, ular, asosan Sobiq Ittifoqning va kommunistik partiyaning g'oyalaridan iborat bo'lib, aniq statistik ma'lumotlarsiz nashr etilgan edi. "O'zbekistonda sovet tuzumining kadrlar siyosati va uning oqibatlari" mavzusi-da tadqiqot olib borgan tarixchi D.A. Iymanova Sobiq ittifoq davrida o'zbekistonlik olimlar ham davlat kadrlar siyosatiga oid tadqiqotlar olib borganliklarini ta'kidlaydi. Uning fikri-

cha, T. Melnikova, N. Muhiddinov, A. Valiyev, Sh. Ziyomov, X. Tursunov, T. Toshmurodov, N. Ahmedov va M. Pakning tadqiqotlari asosan kommunistik partiya yo'nalishida yozilgan bo'lib, kadrlar siyosati borasidagi muammolar va ularning oqibatlari deyarli ta'kidlanmay, aksariyati markscha-lenincha qarashlar asosida yoritilgan [20, 8-b.].

XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan boshlangan "qayta qurish" davlat kadrlar siyosatida ham o'z aksini topa boshladi. Aynan shu paytlardan boshlab professional davlat xizmati shakllana boshladi. Sobiq ittifoqning parchalanishi esa davlat xizmatining ilm-fan va amaliyot sifatida rivojlanishiga sabab bo'ldi. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab Sobiq ittifoq hududidagi davlatlarda davlat xizmati alohida institut sifatida o'rganila boshlandi.

Yaqin yillargacha mamlakatimiz qonunchiligi va amaliyotida faqatgina "davlat xizmati" tushunchasi qo'llanilib kelingan. 2017-yildagi Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida davlat xizmatini tasniflash orqali uning huquqiy asoslarini mustahkamlash belgilangan edi. Natijada mamlakatimiz qonunchiligi va amaliyotida davlat fuqarolik xizmati, maxsus xizmat, siyosiy xizmat kabi institutlar keng qo'llanila boshlandi. Mana shu jarayonda "davlat xizmati" mohiyatan kengroq tushuncha sifatida yuqoridagi xizmat sohalari ham o'z ichiga olmoqda. Tadqiqotda ushbu masalalarni batafsil tahlil qilamiz.

Tadqiqot natijalari tahlili

Davlat xizmati ijtimoiy fanlarda, jumladan, falsafa, huquqshunoslik, siyosatshunoslik, sotsiologiya, menejment, davlat boshqaruvi kabi fanlarda uchraydigan kategoriya hisoblanadi. Yuridik fanlar tarmog'ida ham davlat xizmati instituti bir qancha huquq sohalari xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Jumladan, davlat xizmatining fundamental qoidalari konstitutsiyaviy, hokimiyatchilik munosabatlari ma'muriy, mehnatga oid munosabatlari mehnat, javobgarlik masalalari esa jinoyat huquqining predmeti sifatida

o'rganiladi. Lekin aksariyat mamlakatlarda davlat xizmatchilari davlat nomidan harakat qilishi, ijtimoiy munosabatlarda hokimiyatchilikka asoslanishi nuqtayi nazaridan davlat xizmati, asosan, ma'muriy huquq predmeti sifatida qabul qilingan. Mazkur masala mamlakatimiz huquqshunoslik tizimiga ham taalluqlidir. Shu sababli davlat xizmatiga berilgan ta'riflar xilma-xil bo'lib, uning qaysidir jihati ni ochib berishga xizmat qiladi.

Aksariyat tadqiqotchilar, xususan, B.M. Lazarev [21, 5-6-b.], A.V. Obolonskiy [22, 20-b.], Y.N. Starilov [23, 28-b.], A.P. Alexin va Y.M. Kozlov [24, 152-b.], davlat xizmatining davlatdan olinadigan maosh evaziga davlatga xizmat ko'rsatish xususiyatiga e'tibor qaratishadi. Jumladan, professor B.M. Lazarev davlat xizmati tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: "Davlat xizmati – bu davlatga xizmatdir, ya'ni davlat organlarida, davlatning funktsiya va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan, davlatdan olingan ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar hamda to'lanadigan maosh uchun bajariladigan faoliyat" [21, 5-6-b.].

Ayrim olimlar esa davlat xizmati davlat xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladigan kasbiy (professional) faoliyat ekanligini ta'kidlaydilar. Bu guruhga V.M. Manoxin [25, 9-b.], Y.A. Tixomirov [26, 309-b.], E.E. Dusenov [27, 367-b.], E. Bazarbay [28, 10-b.], U. Tojixonov [29], A.A. Li [30, 11-12-b.], E.T. Xojiyev, G.S. Ismailova, M.A. Raximova [31, 15-b.] kabi olimlarni kiritish mumkin. Jumladan, V.M. Manoxin fikricha: "Davlat xizmati – davlat, jamoat va boshqa ijtimoiy tuzilmalar vakolatlari ijrosini va amaliy bajarilishini tashkil etishdagi muayyan shaxslarning, ya'ni xizmatchilarning kasbiy faoliyatidir" [25, 9-b.]. G'arb olimlari mulohazalarida ham davlat xizmatining professionallik xususiyatiga e'tibor qaratiladi. Jumladan, davlat boshqaruvi sohasi bo'yicha mutaxassislar M. Xolser va J. Rabin davlat xizmati huquqshunoslik va shifokorlik kabi alohida kasb ekanligini qayd etishadi [32, 3-13-b.]. MDH hududidagi

ko'pgina mamlakatlarda davlat xizmatining sobiq Ittifoqqa xos xususiyatlari ustun. Bunda ba'zi davlat xizmatchilarining faoliyati sohaga oid maxsus qonun va mehnat qonunchiligi bilan belgilanadi. Shu sababli davlat xizmatini ta'riflashda uning mehnat faoliyati ekanligiga qaratilgan qarashlar ham shakllangan. Y.N. Starilov [33, 127-133-b.], N.Sh. Said-Gaziyeva [34, 49-b.], B.Sh. Mirboboyev [35, 51-b.], E.T. Xojiyev [36, 28-b.] va X.T. Azizov [37, 21-b.] kabilarning qarashlarida davlat xizmati mehnat faoliyati hisoblanishiga ustuvorlik qaratilgan. Jumladan, X.T. Azizovning ta'kidlashicha: "Davlat xizmati – davlat organlarida hokimiyat vakolatlari doirasida davlat oldida turgan funktsiya va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan mehnat faoliyati" [37, 21-b.]. Davlat xizmati sohasi bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan huquqshunos N.Sh. Said-Gaziyevaning fikricha esa: "Davlat xizmati – ko'pdan-ko'p tarkibiy qismlar birligidir. Bu tashkiliy-huquqiy institutlar (tuzilmalar) tizimi va ishlab chiqarish – mehnat munosabatlarining kompleksi, davlat apparatida ishlashga tayyorlangan odamlar majmui hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarining alohida tizimidir" [34, 49-b.]. Demak, N.Sh. Said-Gaziyeva davlat xizmati deganda, birinchidan, tashkiliy-huquqiy institutlar (davlat idoralari); ikkinchidan, davlat xizmatchilari – kadrlarni nazarda tutadi.

Yana bir tadqiqotchi F.U. Yuldasheva esa davlat xizmatini quyidagicha ta'riflaydi: "Davlat xizmati – davlat budjetidan o'z mehnati va xizmatlari uchun haq oladigan davlat xizmatchilari tomonidan davlatning vazifalari va funksional majburiyatlarini amalga oshirishga qaratilgan ommaviy faoliyat" [38, 116-b.]. Qayd etish lozimki, davlat xizmati davlat organlari va tashkilotlari tizimidagi aniq belgilangan lavozimlar kesimida professional, ya'ni kasbiy tarzda amalga oshiriladi. Xususan, bugungi kunda aksariyat olimlar davlat xizmatini alohida kasb sifatida ham e'tirof etishmoqda. Shu bois "davlat xizmati –

davlat organlari va tashkilotlaridagi lavozimlarda davlat budjetidan to'lanadigan maosh evaziga fuqarolar tomonidan davlatning vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan kasbiy (professional) faoliyat" sifatida ta'riflanishi taklif etiladi.

Davlat xizmati haqida gap ketar ekan, davlat xizmatchisi tushunchasini izohlash ham muhim hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida "xizmatchi" 3 xil ma'noda qo'llanilishi mumkinligi aytilib, ulardan biri "biror idora yoki korxonada yozish-chizish bilan shug'ullanuvchi kishi, xodim" sifatida izohlangan [39, 397-398-b.]. Bundan kelib chiqadiki, davlat xizmatchisi davlat idoralari-da faoliyat yuritadigan xodim sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, davlat xizmatini ta'riflashda uning muayyan xususiyatlariga urg'u qaratilgan. Davlat xizmatchisiga berilgan ta'riflarda ham mazkur xususiyat namoyon bo'ladi.

Professor O.T. Xusanov "davlat xizmatchisi bir tomondan fuqaro va jamiyat, ikkinchi tomondan siyosat va qonunchilik o'rtasida bog'lovchi zveno" ekaniga urg'u qaratadi [34, 22-b.]. Boisi davlat xizmatchisi muayyan davlat lavozimida faoliyat yuritib, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarda davlat nomidan ishtirok etadi, shu bilan birga, xalq manfaatlari-ga xizmat qiladi.

Yana bir huquqshunos U.T. Tojixonov davlat xizmatchisining muayyan foyda uchun markaziy yoki mahalliy davlat hokimiyati idorasida belgilangan vazifaga oid majburiyatlarni bajarishda qatnashish xususiyatiga e'tibor qaratadi [40, 35-b.]. Davlat xizmatchilarining davlat organlarining vakolatlarini bajarishi ularning ma'muriy huquq subyekti ekanligini bildiradi.

Rossiyalik huquqshunos D.N. Baxrax esa: "Xizmatchi – bu har qanday tashkilotda mansabni egallagan va haq evaziga boshqaruv faoliyatini yoki ijtimoiy-madaniy xizmatlar-ni (shifokor, o'qituvchi, kutubxonachi, inspektor, do'kon mudiri va boshqalar) amalga oshiradigan fuqaro" [41], – deydi. Lekin dav-

lat xizmatchilariga qaysi lavozimlarni kiritish har bir davlatning qonunchiligida belgilab qo'yiladi. Masalan, bugungi kunda mam-lakatimizda davlat tasarrufidagi ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalaridagi o'qituvchi va shifokorlarning davlat xizmatchisi hisoblanishi masalasi ochiq qolmoqda.

Huquqshunos F.U. Yuldasheva esa davlat xizmatchisiga quyidagicha ta'rif beradi: "Davlat xizmatchisi – bu 18 yoshga to'lgan, tegishli malakaga ega, davlat organlarida davlat mansabini egallab turgan, davlat tomonidan to'lanadigan (maosh) haq evaziga davlat vazifa va funksiyalarini bajaradigan, egallab turgan mansab lavozimidan kelib chiqib, majburiyatlarni qonun asosida o'rnatilgan tartibda doimiy amalga oshiruvchi fuqaro hisoblanadi" [38, 32-b.].

F.U. Yuldasheva tomonidan berilgan ta'rif birmuncha pishiq. Jumladan, ta'rifda davlat xizmatchisining muayyan belgilangan yoshga to'lgan bo'lishi ta'kidlangan. Lekin davlat xizmatchisining davlatning vazifa va funksiyalarini bajarishi masalasi biroz munozarali. Boisi davlat xizmatchisi davlatning har qanday vazifalarini emas, davlat idoralari-dagi muayyan lavozimga yuklatilgan vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari, davlat xizmatchilaring faqatgina davlat organlarida emas, ayrim davlat tashkilotlarida ham faoliyat yuritishi inobatga olinishi lozim.

Yana bir muhim xususiyat – davlat xizmatchisining davlat tomonidan beriladigan maosh evaziga xizmat faoliyatini olib borish masalasi hisoblanadi. Shuningdek, davlat xizmatchisi belgilangan majburiyatlardan tashqari, huquqlarga ham ega bo'ladiki, ushbu masala ham uni izohlashda e'tiborga olinishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat xizmatchisiga quyidagi mualliflik ta'rifini berish mumkin: "*Davlat xizmatchisi – qonunchilik bilan o'rnatilgan tartibda belgilangan yoshga to'lgan, belgilangan malaka talablariga ko'ra davlat organlarida va tashkilotlaridagi davlat xizmati lavozimini egallagan, davlat budjeti-*

dan doimiy maosh oluvchi, lavozimiga ko'ra huquq va majburiyatlarga ega fuqaro".

Ilmiy adabiyotlar va qonunchilik hujjatlarida "kadr" atamasi ham qo'llanilib kelinadi. "Kadr" fransuzcha "cadres" so'zdan olingan bo'lib, "shaxsiy tarkib" ma'nosini bildiradi. Milliy ensiklopediyada "kadr" tushunchasi ikkita ma'noda qo'llaniladi: "1) korxona, muassasa, firma, hissadorlik jamiyatlari, banklar, kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlarida malakali xodimlarning asosiy tarkibi; 2) Qurolli kuchlarda – haqiqiy xizmatdagi komandirlar va oddiy askarlar tarkibi" [42, 21–22-b.]. Aslida, kadr so'zining mohiyati harbiy xizmatdagi shaxsiy tarkibni bildirsa-da, amaliyotda ensiklopediyadagi birinchi ma'nodan unumli foydalaniladi. Shaxs kadr sifatida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida shakllanib, rivojlanib boradi. O'rta-maxsus ma'lumotga ega kadrlar kollej va texnikumlarda, oliy ma'lumotli kadrlar oliy ta'lim tizimining bakalavriat va magistratura bosqichlarida, ilmiy darajali kadrlar esa oliy ta'limdan keyingi ta'lim (tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilik)da tayyorlanadi.

Davlat xizmatchisi va kadr tushunchalari, ko'p hollarda, bir-birining o'rnida qo'llaniladi. Ayrim o'zbek olimlari ham kadr tushunchasini izohlashda uning faqat davlat xizmatidagi o'rniga e'tibor qaratishgan. Ularning fikricha, kadrlar, bu – davlat apparati, muassasasi, jamoat tashkiloti tashkiloti boshqaruv tizimi tarkibiga kiruvchi malakali xodimlarning asosiy qismi [43, 7–8-b.].

Lekin davlat xizmatchisi va kadr tushunchalari tushunchalarning farqli jihatlari mavjud. Bizningcha, kadr tushunchasi davlat xizmatchisi tushunchasiga nisbatan kengroq hisoblanadi va o'z ichiga davlat xizmatchisini ham qamrab oladi. Davlat xizmatchisi bir paytning o'zida kadr hisoblanadi. Lekin kadr bir paytning o'zida davlat xizmatchisi hisoblanmasligi mumkin. Sababi kadr faqat davlat xizmatida emas, xususiylar sektorda ham faoliyat yuritishi yoki har ikkala sektor uchun

ham potensial (ehtimoliylar) nomzod (hali talaba yoki ishsiz fuqaro) hisoblanishi mumkin. Huquqshunos V.J. Xudoyberdiyeva ham o'z tadqiqotida kadrlarning potentsiallik xususiyatiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, "kadr – ijtimoiylar-huquqiy kategoriya bo'lib, mamlakatning mehnat potentsiali, inson faktori-ning muhim elementi sifatida xarakterlanadi" [44, 99-b.]. Bundan tashqari, kadr muayyan bilim va malakaga ega bo'lishi ham lozim. Bu uning kadr sifatidagi eng muhim xususiyati sanaladi. Shunday qilib, kadr so'ziga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "*Kadr – davlat yoki nodavlat sektorda faoliyat yurituvchi, shuningdek, har ikkala sektor uchun potentsial (ehtimoliylar) nomzod hisoblanuvchi ma'lum bir malakaga ega shaxs*".

Xulosa qilganda, davlat xizmati davlat boshqaruvining muhim elementi bo'lib, professional kadrlar – davlat xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladi. U tushuncha sifatida bir necha asr oldin Yevropada vujudga kelgan bo'lsa-da, mohiyatan davlatlarning paydo bo'lishi bilan parallel ravishda shakllangan. Unga olimlar tomonidan xilma-xil ta'riflar berilib, bu ta'riflar uning qaysidir xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosalar

Maqolada davlat xizmatini institutining kelib chiqishi, shakllanishi, tushunchasi va mazmun-mohiyatiga oid ilmiylar-nazariylar va konseptual qarashlar tahlil qilingan holda quyidagicha umumlashgan xulosalarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, davlat xizmati va davlat xizmatchisi tushunchalariga olimlar tomonidan xilma-xil ta'riflar berilib, bu ta'riflar uning qaysidir xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Davlat xizmatini tasniflash bo'yicha yagona yondashuv va standart mavjud emas. Bu borada olimlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar asosida nazariylar va davlatlarning o'ziga xos tajribalari shakllangan. Tadqiqot natijasidan, quyidagi tushunchalarga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilib, ilmiylar muomalada qo'llash taklif etildi:

davlat xizmati – davlat organlari va tashkilotlaridagi lavozimlarda davlat budjetidan to'lanadigan maosh evaziga fuqarolar tomonidan davlatning vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan kasbiy (professional) faoliyat;

davlat xizmatchisi – qonunchilik bilan o'rnatilgan tartibda belgilangan yoshga to'lgan, belgilangan malaka talablariga ko'ra davlat organlari va tashkilotlaridagi davlat xizmati lavozimini egallagan, davlat budjetidan doimiy maosh oluvchi, lavozimiga ko'ra huquq va majburiyatlarga ega fuqaro;

kadr – davlat yoki nodavlat sektorda faoliyat yurituvchi, shuningdek, har ikkala sektor uchun potensial (ehtimoliy) nomzod hisoblanuvchi ma'lum bir malakaga ega shaxs;

ikkinchidan, davlat xizmati ijtimoiy-huquqiy fanlardagi alohida kategoriya (*institut*) sifatida XIX asrdan Buyuk Britaniyada qo'llanila boshlagan bo'lsa-da, *professional soha* sifatida eramizdan oldingi davrlarda qadimgi Sharqda, asosan, Misr va Xitoyda shakllana boshlagan degan xulosaga kelindi;

uchinchidan, davlat xizmatchilariga qo'yiladigan talablar milliy-tarixiy manbalar, xususan, "Avesto", shuningdek, Abu Nasr Fa-

robiy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmuluk, Amir Temur, Alisher Navoiyning asarlarida mavjud bo'lib, ularning aksariyati bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu manbalar bugungi kunda davlat xizmatining milliy modelini shakllantirishda fundamental manbalar sifatida xizmat qiladi;

to'rtinchidan, huquqiy tartibga solinishi nuqtayi nazaridan yondashilganda, mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati *ommaviy huquq normalari bilan bir qatorda mehnat huquqi normalari bilan ham tartibga solinadigan aralash tizim* shakllanganligi qayd etildi;

beshinchidan, bugungi kunda O'zbekistonda davlat xizmatini tasniflash barcha davlat xizmatchilarini qamrab olmayapti. Mazkur ijtimoiy munosabatlarda vujudga kelgan huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Davlat xizmati tizimi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi va unda davlat xizmatining turlari aniq belgilanishi lozim. Qonunda davlat xizmatining quyidagi turlardan iborat bo'lishi taklif etiladi: davlatning siyosiy xizmati, davlatning maxsus xizmati va davlat fuqarolik xizmati.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis]. *People's Word Newspaper*, 2018, vol. 271–272, pp. 7229–7230.
2. Ann P. Chronicle of the Chinese Emperors: The Reign-by-Reign Record of the Rulers of Imperial China. New York, Thames and Hudson Publ., p. 224.
3. Cherrie J.Zh., Malcolm W. The emergence of Human Resource Management in China: Convergence, divergence and contextualization. *Human Resource Management Review*, 2019, vol. 1(29), pp. 87–97.
4. Benjamin E. Civil Service Examinations. Massachusetts, Berkshire Publ., 2009, pp. 405–410.
5. Itzhak G., Jennifer O. Civil Service. *International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences*, 2015, vol. 3, pp. 695–700.
6. Callie W. The East India College debate and the fashioning of imperial officials, 1806–1858. *The Historical Journal*, 2017, vol. 4(60), pp. 943–969.
7. Sagdullaev A., Mavlonov U. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi [History of public administration in Uzbekistan]. Tashkent, Academy Publ., 2006, p. 36.
8. Ravshanov F. O'zbekiston Respublikasida boshqaruv kadrlarini tanlash asoslari [Fundamentals of selecting management personnel in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2009, p. 22.

9. Abu Nasr Forobiy. Solihlar shahri [The City of the Righteous]. Tashkent, New generation Publ., 2016, p. 320.
10. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig [Knowledge of the future]. Tashkent, Cholpon Publ., 2009, p. 78.
11. Nizomulmulk Siyosatinoma [Policy document]. Tashkent, Justice Publ., 1997, p. 256.
12. Amir Temur. Temur tuzuklari [Timur's traps]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2018, pp. 107–108.
13. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib [In memory of Amir Temur]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2018, p. 12.
14. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy [Saddi Iskandari]. Tashkent, New generation Publ., 2009, p. 84.
15. Muxitdinova F.A. Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta'limotlari [Political and legal teachings of Eastern Renaissance thinkers]. Tashkent, 2010, p. 10.
16. Boboyev H., Xidirov Z. O'zbek davlatchiligi tarixi [History of Uzbek statehood]. Tashkent, Science and technology Publ., 2009, p. 218.
17. Qur'anboyev Q.Q. Davlat boshqaruvi kadrlar tizimi: shakllanish va rivojlanish muammolari (siyosiy va ijtimoiy jihatlar) [Public administration personnel system: problems of formation and development (political and social aspects)]. Tashkent, 2008, p. 68.
18. Azizxo'jaev A.A. Chin o'zbek ishi [A true Uzbek work]. Tashkent, Uzbekistan publ., 2011, p. 259.
19. Beylin A.Ye. Kadry spetsialistov SSSR [Personnel of specialists of the USSR]. Moscow, 1935, p. 418.
20. Iymanova D.A. O'zbekistonda sovet tuzumining kadrlar siyosati va uning oqibatlari (1945–1991) [The personnel policy of the Soviet regime in Uzbekistan and its consequences (1945–1991)]. Tashkent, 2011, p. 8.
21. Lazarev B.M. Gosudarstvennaya sluzhba [Public service]. Moscow, BEK Publ., 1993, pp. 5–6.
22. Obolonskiy A.V. Gosudarstvennaya sluzhba (kompleksnyy podkhod) [Public service (integrated approach)]. Moscow, 1999, p. 20.
23. Starilov Yu.N. Gosudarstvennaya sluzhba v Rossiyskoy Federatsii: teoretiko-pravovoye issled [Civil Service in the Russian Federation: Theoretical and Legal Research]. Voronezh, 1996, p. 28.
24. Alekhin A.P., Kozlov Yu.M., Karmolitskiy A.A. Administrativnoye pravo Rossiyskoy Federatsii [Administrative law of the Russian Federation]. Moscow, Зерцало Publ., 1996, p. 152.
25. Manokhin V.M. Sluzhba i sluzhashchiye v Rossiyskoy Federatsii: pravovoye regulirovaniye [Service and employees in the Russian Federation: legal regulation]. Moscow, 1997, p. 9.
26. Tikhomirov Yu.A. Administrativnoye pravo i protsess: polnyy kurs [Administrative Law and Procedure: A Complete Course]. Moscow, 2006, p. 309.
27. Duysenov E.E. Pravovyye problemy reformirovaniya gosudarstvennogo upravleniya (Respublika Kazakhstan i Kyrgyzskaya Respublika) [Legal issues of public administration reform (Republic of Kazakhstan and Kyrgyz Republic)]. Almaty, 2003, p. 367.
28. Bazarbay E.B. Stanovleniye i razvitiye gosudarstvennoy sluzhby Kyrgyzskoy Respubliki: istoriko-pravovoye issledovaniye [Formation and development of the civil service of the Kyrgyz Republic: historical and legal research]. Yekaterinburg, 2007, p. 10.
29. Tojixonov U. Yuridik ensiklopediya [Legal encyclopedia]. Tashkent, East Publ., 2001, p. 656.
30. Li A. Pravovoye regulirovaniye gosudarstvennoy sluzhby [Legal regulation of civil service]. Tashkent, TSUL Publ., 2021, p. 11–12.
31. Xojiyev E.T., Ismailova G.S., Raximova M.A. Davlat xizmati [Civil service]. Tashkent, Baktria Publ., 2015, p. 15.
32. Marc H., Jack R. Public service: Problems, professionalism, and policy recommendations. Public Productivity Review Publ., 1987, pp. 3–13.
33. Starilov Yu.N. Sluzhebnoye pravo [Service law]. Moscow, 1996, pp. 127–133.
34. Said-Gaziyeva N.Sh. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatini isloh etish masalalari [Issues of civil service reform in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2008, p. 49.
35. Mirboboyev B., Xusanov O., Begmatov A. O'zbekiston davlat xizmatini tashkil etishning tashkiliy huquqiy masalalari [Organizational and legal issues of the organization of the civil service of Uzbekistan].

kistan]. Tashkent, Akademiya Publ., 2005, p. 51.

36. Xojiyev E.T. Davlat xizmati [Civil service]. Tashkent, TSIL Publ., 2004, p. 28.

37. Azizov X., Yo'ldoshev A., Asadov SH., Xayitov X., Karimov D., Bekchanov D., Atajanova D., Yuldasheva F. Davlat xizmati [Civil service]. Tashkent, Wing of Thought Publ., 2019, p. 21.

38. Yuldasheva F.U. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatiga kirish va o'tashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish [O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatiga kirish va o'tashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish]. Tashkent, 2021, p. 116.

39. Madaliyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. Tashkent, Uz.ME Publ., 2007, pp. 397–398.

40. Tojixonov U.T. Davlat xizmati: tajriba va muammolar [Civil service: experience and challenges]. Tashkent, IIB Academy Publ., 1996, p. 35.

41. Bakhrakh D.N. Gosudarstvennaya sluzhba: osnovnyye ponyatiya, yeye sostavlyayushchiye, soderzhaniye i printsipy [Civil service: basic concepts, its components, content and principles]. *State and Law*, 1996, vol. 12, pp. 10–18.

42. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "K" harfi [National Encyclopedia of Uzbekistan. The letter «K»]. Tashkent, Uz.ME Publ., 2006, pp. 21–22.

43. Azizxo'jayev A.A. Davlat xizmati personalini boshqarish [Civil service personnel management]. Tashkent, Academia Publ., 2002, pp. 7–8.

44. Khudoyberdiyeva V.Zh. Administrativno pravovyye voprosy podbora i rasstanovki upravlencheskikh kadrov na predpriyatii [Administrative and legal issues of selection and placement of management personnel at the enterprise]. Tashkent, 1993, p. 99.

45. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub [Mahbub ul-qulub]. Tashkent, New generation Publ., 2019, p. 320.

46. Pronin I.I. Rukovodyashchiye kadry: podbor, rasstanovka i vospitaniye [Management personnel: selection, placement and training]. Moscow, Thought Publ., 1981, p. 224.

47. Razumov Ye.Z. Problemy kadrovoy politiki KPSS [Problems of the personnel policy of the CPSU]. Moscow, 1983, p. 192.

48. Yatskov V.A. Kadrovaya politika KPSS: Opyt i problemy [Personnel Policy of the CPSU: Experience and Problems]. Moscow, 1986, p. 315.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2025-yil 2-son

VOLUME 9 / ISSUE 2 / 2025
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.2.